

TA'LIM TIZIMIDA TARBIYASI QIYIN BOLALAR BILAN PSIXOLOGIK ISH OLIB BORISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Bekimbetova Gulshexra Tolebaevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi
Taxtako'pir tumani 6-sonli ayirim fanlar
chuqurlashtirilib o'qitiladigan umumiy
o'rta talim maktabi amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning psixologik asoslari, ularning xulq-atvoridagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Shuningdek, maktab psixologi, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarbiyasi qiyin bola, xulq-atvor, psixologik yordam, ijtimoiy moslashuv, motivatsiya, korreksiya, maktab psixologi, emotsional rivojlanish, profilaktika, pedagogik yondashuv.

KIRISH

Tarbiyasi qiyin bolalar tushunchasi ta'lim jarayonida xulq-atvori me'yorlardan chetga chiqadigan, ijtimoiy talab va qoidalarga moslashishda qiyinchilikka duch keladigan o'quvchilarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday bolalar bilan ishlash ta'lim tizimida alohida psixologik yondashuv va individual yondashuvni talab qiladi.

Psixologik jihatdan tarbiyasi qiyin bolalarda ko'pincha emotsional beqarorlik, agressivlik, diqqat yetishmovchiligi, o'zini past baholash va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Ushbu holatlar oilaviy muhit, ijtimoiy omillar yoki shaxsiy rivojlanishdagi muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zamonaviy psixologiyada bunday bolalar bilan ishlashda bir nechta samarali yondashuvlar qo'llaniladi. Ulardan biri kognitiv-xulqiy terapiya usullaridir. Bu yondashuv bola fikrlashidagi salbiy stereotiplarni aniqlash va ularni ijobiy xulq-atvor bilan almashtirishga qaratilgan.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar. Shu sababli ijobiy model bo'ladigan o'qituvchi va tengdoshlar tarbiyasi qiyin bolalarda ijobiy o'zgarishlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktab psixologining individual yondashuvi ham juda muhimdir. Har bir bola bilan alohida suhbatlar o'tkazish, uning muammolarini aniqlash va shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish samarali natija beradi. Psixologik diagnostika vositalari orqali bolaning emotsional holati chuqur o'rganiladi. Guruhiy treninglar va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlari ham zamonaviy

usullar qatoriga kiradi. Bunday mashg'ulotlar bolalarda muloqot ko'nikmalarini, empatiya va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijobiy rag'batlantirish (pozitiv mustahkamlash) usuli ham samarali hisoblanadi. Bola to'g'ri xulq ko'rsatganda uni maqtash, rag'batlantirish va kichik yutuqlarini e'tirof etish uning motivatsiyasini oshiradi. Oila bilan hamkorlik tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning muhim qismidir. Ota-onalarga psixologik maslahat berish, ularning tarbiya usullarini to'g'rilash va oilaviy muhitni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish zarur. Shuningdek, art-terapiya, o'yin terapiyasi va relaksatsiya mashqlari kabi zamonaviy psixologik usullar bolalarning emotsional zo'riqishini kamaytirishga yordam beradi. Bu usullar bolaga o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkonini beradi.

Tarbiyasi og'ir bolalarda uchraydigan ayrim salbiy xulq-atvor ko'rinishlari, jumladan qaysarlik, o'jarlik va qo'pollik kabi holatlar maktabgacha davrdanoq shakllanishi mumkin. Bunday holatlarning yuzaga kelishi ko'pincha oiladagi tarbiya muhiti, bog'cha va maktabdagi pedagogik yondashuv hamda kattalarning munosabatiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi bolalarning aksariyati oilada tarbiyalanadi, biroq ayrim oilalarda ota-onalar farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor qaratmaydi yoki aksincha, ularni haddan tashqari erkalatib yuboradi. Ba'zi hollarda onalar bolalarning noto'g'ri xulqini otalardan yashirishi ham kuzatiladi, bu esa bolaning xulq-atvorida salbiy shakllanishlarga, xususan, xudbinlik, faqat o'z manfaatini o'ylash, qo'pollik va boshqalarga befarqlik kabi xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ayrim ota-onalar farzandining tashqi ehtiyojlari, ya'ni kiyim-kechak va moddiy ta'minotiga e'tibor qaratgan holda, uning ichki dunyosi, ruhiy va ma'naviy ehtiyojlarini e'tibordan chetda qoldiradilar. Bunday biryoqlama yondashuv tarbiyasi og'ir bolalar sonining ortishiga sabab bo'luvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois bola tarbiyasida erta yoshdan boshlab uning xulq-atvoriga, hissiy holatiga va individual xususiyatlariga e'tibor berish muhimdir. Go'daklik davridan boshlab ota-ona farzandning holatini kuzatishi, uning ehtiyojlarini tushunishga harakat qilishi va unga mehrlil munosabatda bo'lishi zarur.

Tarbiyaning uzluksiz jarayon ekanligi inobatga olinsa, inson tug'ilganidan umrining oxirigacha ijtimoiy muhit va tarbiya ta'sirida shakllanib boradi. Shu jarayonda tashqi muhit omillari shaxsning ijobiy yoki salbiy sifatlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida uning oilaviy muhiti, ijtimoiy sharoiti hamda ota-onasining kimligi va tarbiyaviy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda "tarbiyasi og'ir bolalar" muammosining ko'payib borayotgani jamiyat va ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga zamonaviy axborot oqimining kuchayishi, internet va turli elektron vositalardan nazoratsiz foydalanish, oiladagi e'tiborning yetishmasligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kabi omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislarining fikricha, bunday bolalar bilan ishlashda avvalo ularning o'zini ijobiy tomonga o'zgartirishga tayyorlash, turli qiyinchiliklarga bardosh berish ko'nikmalarini shakllantirish va tashqi salbiy ta'sirlarga nisbatan psixologik barqarorlikni rivojlantirish muhimdir. Noto'g'ri shakllangan xulq-atvorni to'g'ri psixologik va pedagogik yondashuvlar orqali me'yoriy holatga keltirish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, shaxsning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, inson tajribasi va tarbiya jarayoni orqali avloddan-avlodga o'tadi. Umuman olganda, insonning shaxs sifatida shakllanishida irsiyatdan ko'ra ijtimoiy omillar va tarbiya ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda salbiy xulq-atvor ko'rinishlarining shakllanishida irsiy moyillik ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkinligi inkor etilmaydi.

Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol totirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarni kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me'yorlari to'g'risidagi tasavvuri ota-onalarning hulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab – tergap tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashoqlik, ahloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushinish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushinmaydi. Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehda ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(nafarat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota-onaning bolalar oldida mehnatni qadrlamasligi, oson daromad topish yo'llarini ma'qullab gapirishi yoki boshqalarga nisbatan hurmatsiz munosabatini ochiq namoyish etishi farzandning axloqiy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola ko'pincha kattalarning xatti-harakatini kuzatib, uni tabiiy holat sifatida qabul qiladi va shu asosda o'zining munosabat hamda xulq-atvorini shakllantiradi. Shu sababli tarbiya jarayonida ota-onaning shaxsiy namunasi juda muhim hisoblanadi.

“Tarbiyasi og‘ir” tushunchasi odatda xulq-atvori me‘yorlardan chetga chiqadigan, intizomsiz, o‘qishga qiziqishi past yoki jamiyat qoidalariga rioya qilishi sust bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq bunday holatni birgina sabab bilan izohlab bo‘lmaydi, chunki har bir bola o‘ziga xos shaxs bo‘lib, uning xulqidagi o‘zgarishlar turli omillar — oilaviy muhit, tarbiyaviy yondashuv, ijtimoiy sharoit va shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ayrim hollarda xulq-atvordagi og‘ishlar tibbiy yoki psixologik omillar bilan ham izohlanadi, boshqa holatlarda esa e‘tiborsizlik, nazoratning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri tarbiya uslublari natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun “tarbiyasi og‘ir” bolalarni bir xil mezon bilan baholash to‘g‘ri emas, balki har bir holatga individual yondashuv zarur. Har bir bolaning xulqida o‘ziga xos sabablar mavjud bo‘lib, ularni aniqlash va to‘g‘ri pedagogik hamda psixologik yordam ko‘rsatish orqali ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Maktab psixologi, o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi, zamonaviy psixologik usullarni qo‘llash orqali bolalarning ijobiy xulq-atvorini shakllantirish va ularni jamiyatga moslashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G‘.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. Albert Bandura. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi.
7. B.F. Skinner. Operant shartlanish va xulq-atvorni boshqarish nazariyasi.